

## “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga tashrif

2021- yil 13-fevral kuni "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari O. Ro'zibaev hamda fakultetning 1-kurs talabalari "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga tashrif buyurishdi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi mustabid tuzum davrida zulm va tajovuz qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz xotirasiga ko'rsatilgan ulkan ehtiromning yorqin ifodasidir. Bu yerda ajdodlari xotirasini yod etishga kelganlar, ayniqsa, yoshlar bugungi tinch va osoyishta, to'kin va farovon hayotga qanday og'ir yo'qotishlar, sinovlar va mashaqqatlar evaziga erishganimizni anglaydi, tinchlikning, mustaqillikning naqadar buyuk ne'mat ekanini teranroq his etadi.



Bugungi ozod va obod kunlarni orzu qilgan, shu yo'lda o'z hayotini ham ayamagan ajdodlarimizning xotirasini yod etar ekanmiz, istiqlol tufayli yurtimizda tarixiy adolat qaror topganiga, xalqimiz o'tmishdan saboq chiqarib, buyuk kelajak sari dadil intilayotganiga, bunda tabarruk qadamjolar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz.

**TIQXMMI matbuot xizmati**